



IJTIMOIYLASHUV IJTIMOY- PEDAGOGIK HODISA SIFATIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19334765>

S.B.Sharipova

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti, pedagogika va psixologiya
kafedrası dotsenti*

Annotatsiya. *ijtimoiylashuv jarayonining mohiyati, uni shakllantirish yo'llari, asosiy elementlari haqida tasavvur hosil qilish hamda Irsiyat va muhit ta'siriga tarbiya yo'li bilan tuzatishlar kiritiladi. Tarbiya – jamiyatga to'laonli shaxsni berishga qodir bo'lgan asosiy kuch. Insonning ijtimoiylashuvi jarayoni atrof muhit bilan stixiyali o'zaro aloqalarga kirishish sharoitida ham, izchil va boshqariladigan tarbiya jarayonida ham yuz beradi. Tarbiya jarayonida shaxsning kamol topishi, o'z shaxsiyatini belgilashi va yangi fazilatlarining shakllanishi haqida.*

Tayanch tushunchalar: *ijtimoiylashuv, bolalik, mexanizmlar, o'smirlik, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy muhit, ijtimoiylashuv agentlarining tili va nutqi, maishiy va gigienik ko'nikmalar, inson, muhit, moddiy madaniyat.*

Ijtimoiylashuv – insonning butun umri mobaynida davom etuvchi uzluksiz va serqirra jarayon. U barcha bazaviy qadriyatlar va mo'ljallar hamda ijtimoiy xulq-atvor motivlari shakllanuvchi bolalik va o'smirlik davrlarida ayniqsa faol yuz beradi. Inson – ijtimoiy mavjudot. Ijtimoiy muloqot tajribasini inson ilk bor tili chiqishidan ham oldinroq o'zlashtiradi. Inson ulg'aygani, muloqotlari doirasi kengaygani sari uning tajribasi ham o'sib boradi. Har bir inson hayotdan olingan saboqlarni o'zlashtiradi.

Ijtimoiy pedagogikada ijtimoiy muhit insonning kamol topish jarayoni yuz beruvchi real voqelik sifatida qaraladi. Shaxsning kamol topishiga sirtidan turli omillar, shu jumladan geografik, ijtimoiy omillar, maktab, oila

ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy muhit – alohida munosabatlar tizimi bilan tavsiflanuvchi odamlarning turli-tuman birliklari. Ijtimoiy muhit insonga ta'sir ko'rsatadi, unga o'z talablarini qo'yadi. U insonni, uning muayyan fazilatlarini qabul qilishi, unga xayrixoh yoki salbiy ko'z bilan qarashi mumkin.

Ijtimoiy muhitning insonga bo'lgan munosabati uning xulq-atvori muhit talabiga qay darajada muvofiqligi, uning jamiyatdagi o'rni

bilan belgilanadi. Inson jamiyatda bir vaqtning o'zida bir nechta pozitsiyani egallashi mumkin. Masalan, insonning maqomi uning jinsi, millati bilan belgilanishi mumkin. Bunday maqomlar odatda tug'ma maqomlar deb ataladi. Boshqa turdagi maqomlarni inson



jamiyatda o'z kuch-g'ayrati bilan, mustaqil qo'lga kiritadi. Maqom insonning jamiyatdagi holatini belgilaydi, shu ma'nodaki, muayyan sharoitda insondan ma'lum xulq-atvorni kutadilar. Bunday kutilgan xulq-atvorni ijtimoiy rol deb ataydilar. Turli xil ijtimoiy rollarni o'zlashtirish ijtimoiylashuv jarayonining muhim qismi hisoblanadi. O'sish va kamol topish jarayonida inson ijobiy rollarni o'zlashtirishi ham, salbiy rollarni o'zlashtirishi ham mumkin. Ijobiy rollarga eng avvalo oila a'zosi rolini kiritish o'rinli bo'ladi. Oilada bola bir nechta rolni, chunonchi: farzand, aka yoki uka, opa yoki singil, jiyan, nabira rollarini o'ynashi mumkin. Bundan tashqari, u ota va ona, buva va buvi rollari bilan ham tanishadi.

Inson o'z rivojlanish jarayonida o'zlashtiradigan navbatdagi muhim

rol – bu muayyan jamoa a'zosi roli. O'z davlatining fuqarosi bo'lish, Vatanni ardoqlash, u bilan g'ururlanish ham muhim ijtimoiy rollardir. Bundan tashqari, ayrim ijtimoiy rollarni inson ta'limjarayonida o'zlashtiradi. Xususan, mutaxassis rolini u kasb-hunar ta'limi o'qov yurtlarida oladi.

Inson muayyan ijtimoiy rollarni o'zlashtirishi unga ijtimoiy munosabatlarga faol qo'shilish, ijtimoiy muhit sharoitlariga samarali moslashish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy muhit sharoitlariga individning bunday moslashishi ijtimoiy moslashuv deb ataladi.

Ijtimoiy moslashuv turli faoliyat va muloqot sohalarida insonning samarali

ijtimoiylashuvi natijasi va omili hisoblanadi. Ijtimoiy moslashuv jarayonida insonda o'z individualligini shakllantirish ehtiyoji paydo bo'ladi. Inson uni ifodalash usullari va vositalarini izlaydi. Shunday qilib, Insonga muayyan qoidalarga amal qilish majburiyatini yuklovchi bunday pozitsiya sotsiologiyada ijtimoiy maqom (status) deb ataladi. Ayrim maqomlarga inson tug'ilgan paytdan boshlab ega bo'ladi.

Ijtimoiy rivojlanish ikki yo'nalishda – ijtimoiylashuv (tajriba

orttirish) va individuallashuv (mustaqillikka erishish) yo'nalishlarida yuz beradi. Agar bu ikki jarayon o'rtasida muvozanat o'rnatilsa, ya'ni, bir tomondan, inson mazkur jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlari va qoidalarini o'zlashtirsa, boshqa tomondan esa – o'zining muayyan tuzatishlarini kiritsa, shaxs va jamiyatning o'zaro boyishi yuz beradi. Bu muayyan shaxsiy fazilatlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Insonning muayyan guruhga moslashuv jarayoni yuz bermagan ayrim hollarda bu shaxsning jiddiy deformatsiyasiga olib kelishi mumkin. bu jarayonlarning barchasi inson hayoti va faoliyati mobaynida yuz berishi mumkin. Ya'ni ijtimoiylashuv – insonning butun umri mobaynida davom etuvchi uzluksiz va serqirra jarayon. U barcha bazaviy qadriyatlar va mo'ljallar hamda ijtimoiy xulq-atvor motivlari shakllanuvchi bolalik va o'smirlik davrlarida ayniqsa faol yuz beradi. Lo'nda qilib aytganda,



bolalik va o'smirlik davrlarida inson shaxsining zamini yaratiladi.

Irsiyat va muhit ta'siriga tarbiya yo'li bilan tuzatishlarkiritiladi. Tarbiya – jamiyatga to'laonli shaxsni berishga qodir bo'lgan asosiy kuch. Insonning ijtimoiylashuvi jarayoni atrof muhit bilan stixiyali o'zaro aloqalarga kirishish sharoitida ham, izchil va boshqariladigan tarbiya jarayonida ham yuz beradi. Tarbiya jarayonida shaxsning kamol topishi, o'z shaxsiyatini belgilashi va yangi fazilatlarining shakllanishi yuz beradi.

Ijtimoiylashuvning mohiyati shu bilan belgilanadiki, u insonni jamiyatning to'laonli a'zosi sifatida shakllantiradi. Tarbiya –shaxsning o'zini o'zi kamolotga yetkazish qobiliyatini shakllantirish. Inson beshikdan qabrgacha tarbiyalanadi. Tarbiyaviy ta'sir kuchi insonning yoshi, ijtimoiy holatiga qarab o'zgaradi. Ijtimoiy tarbiyaning mohiyati jamiyatga uyg'un qo'shilishga qodir bo'lgan shaxsni voyaga yetkazishdan iborat.

Ijtimoiylashuv mexanizmlari. Har qanday jamiyatda insonning

ijtimoiylashuv jarayoni turli bosqichlarda o'z xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Ijtimoiylashuv rivojlanishga ta'sir ko'rsatuvchi turli-tuman omillar bilan o'zaro aloqada yuz beradi. Insonga ta'sir ko'rsatuvchi

omillarni ijtimoiylashuv omillari deb nomlash odat tusini olgan. Amalda ularning barcha ham aniqlanmagan, aniqlanganlarining esa barchasi ham o'rganilmagan. Ijtimoiylashuv omillarini

shartliravishda to'rt guruhga birlashtirish mumkin.

Birinchi – megaomillar (mega – juda katta, umumiy): kosmos, sayyora, olam, Internet, ya'ni butun dunyo aholisining ijtimoiylashuviga u

yoki bu darajada ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Ikkinchi – makroomillar (makro – katta): mamlakat, etnos, jamiyat,

davlat, ya'ni muayyan mamlakat aholisining ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Uchinchi – mezoomillar (mezo – o'rtacha, oraliq): yashash joyi va turi (mintaqa, qishloq, shahar)ga, turli ommaviy aloqa vositalari (radio, televidenie) auditoriyasiga mansublik belgisiga ko'ra ajratiladigan kishilar yirik guruhlarining ijtimoiylashuvini belgilovchi omillar. Mezoomillar ijtimoiylashuvga ham bevosita,

to'rtinchi guruh – mikroomillar orqali ta'sir ko'rsatadi. Mikroomillarga konkret kishilar – oila, qo'shnilar, mahalla, tengdoshlar guruhlariga, jamoat, davlat tashkilotlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar kiradi. Insonning shaxs sifatida kamol topishida uni qurshagan muhitda

yashovchi odamlar ayniqsa muhim rol o'ynaydilar. Ularni ijtimoiylashuv agentlari deb nomlash odat tusini olgan. Turli yosh bosqichlarida agentlar tarkibi har xil bo'ladi. Masalan, bolalar vao'smirlarga nisbatan bunday agentlar sifatida ota-ona, aka-uka, opa- singillar, qarindoshlar, tengdoshlar, qo'shnilar, o'qituvchilar amal qiladilar. Yoshlik



davrida agentlar qatoriga er yoki xotin, hamkasblar ham qo'shiladi. Ijtimoiylashuv jarayonidagi roliga ko'ra agentlar insonning kamol topishidagi ahamiyatiga qarab farqlanadi. Insonning ijtimoiylashuvi turli vositalar majmui yordamida amalga oshiriladi. Ular muayyan jamiyat, ijtimoiy qatlam yoki yosh uchun turlicha bo'ladi.

Ijtimoiylashuv vositalariga quyidagilarnikiritish mumkin:

- ijtimoiylashuv agentlarining tili va nutqi;
- maishiy va gigienik ko'nikmalar;
- insonni qurshagan muhitning moddiy madaniyati;
- ma'naviy madaniyat unsurlari;
- muloqot uslubi, oilada, tengdoshlar guruhlarida rag'batlantirish va jazolash usullari;
- inson hayot faoliyatining asosiy sohalari (kasbiy faoliyat, jamoatchilik faoliyati va sh.k.)dagi munosabatlar.

Insonning ijtimoiylashuvi turli omillar va agentlar bilan o'zaro aloqada bir qator mexanizmlar yordamida amalga oshadi. Ijtimoiy pedagogika tarixida ularga turli xil yondashuvlar mavjud. Imprinting, taqlid, identifikatsiya ijtimoiylashuvning asosiy mexanizmlari hisoblanadi. Imprinting (gavdalanitirish) – insonga ta'sir ko'rsatuvchi muhim ob'ektlar uning ong osti sohasida qayd etilishi. Imprinting asosan bolalikda yuz beradi. Ammo ba'zan u keyingi yosh bosqichlarida yuz berishi ham mumkin. Taqlid – biron-bir o'rnak, andozaga amal qilish. Bu inson ijtimoiy tajribani ixtiyoriy va ko'pincha beixtiyor

o'zlashtirishi yo'llaridan biri. Identifikatsiya – inson o'zini boshqa odam bilan ongsiz tarzda ayniylashtirish jarayoni. Ijtimoiylashuvning odatdagi mexanizmi inson oilasiga va uni qurshagan muhitga xos bo'lgan xulq-atvor andozalari, me'yorlar va qarashlarni o'zlashtirishni o'zida ifodalaydi. Bu o'zlashtirish, odatda, botiniy darajada hukmron andozalarni gavdalanitirish yo'li bilan

amalga oshiriladi. Odatdagi mexanizmning samaradorligi shunda namoyon bo'ladiki, bolalikda o'zlashtirilgan, lekin hayot sharoitlariga ko'ra amalda qo'llanilmagan ijtimoiy tajriba unsurlari inson xulq - atvorida yashash sharoitlari o'zgarganida yoki boshqa yosh bosqichlarida namoyon bo'lishi mumkin.

Ijtimoiylashuvning institutsional mexanizmi inson jamiyat institutlari va turli tashkilotlar bilan o'zaro aloqaga kirishgan paytda amal qiladi. Buning natijasida inson tegishli bilimlarni va ijtimoiy maqbul xulq-atvor tajribasini o'zlashtiradi.

Shuni qayd etish lozimki, ommaviy kommunikatsiya vositalari (matbuot, radio, kino, televidenie) ijtimoiy institut sifatida insonning ijtimoiylashuviga muayyan axborotni berish orqaligina emas, balki kitoblar, filmlar va teleko'rsatuvlar qahramonlari xulq-atvorining muayyan andozalarini berish yo'li bilan ham ta'sir ko'rsatadi. Yoshga doir va individual xususiyatlariga ko'ra odamlar o'zlarini u yoki bu qahramonlar bilan identifikatsiya qilishga, ularga xos



bo'lgan xulq-atvor uslubi, turmush tarzi va hokazolarni o'zlashtirishga moyildirlar.

Ijtimoiylashuvning uslubiy mexanizmi muayyan submadaniyat doirasida amal qiladi. Submadaniyat deganda odatda muayyan yoshdagi kishilarga yoki muayyan kasbiy yoxud madaniy qatlam vakillariga xos bo'lgan, umuman olganda ularning muayyan yashash va fikrlash uslubini yaratadigan

axloqiy-ruhiy jihatlar majmui tushuniladi. Insonning ijtimoiylashuvi yuqorida zikr etilgan mexanizmlar yordamida yuz beradi. Ammo mazkur mexanizmlar rolining nisbati turli toifadagi odamlarda har xil bo'ladi. Masalan, qishloq sharoitida odatdagi mexanizm birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Yirik shahar sharoitida institutsional va uslubiy mexanizmlar yetakchilik qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Ijtimoiy pedagogika" o'quv qo'llanma. Fayzullaeva N.S Toshkent-2011.
2. Sharipova Surayyo Burxanovna-The impact of spoken language on pupils' mental activity: A cognitive exploration/2023/11/15
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
4. Sharipova Surayyo Burkhanovna-Androgical cooperation mechanisms in the formation of a common worldwide in family relations /2023/9/16
5. Schön, D. A. (1983). The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. Basic Books.